

Qurbonboyeva Ra’no Yahyo qizi

Mirzo Ulug’bek nomidagi O‘zbekiston Milliy

Universiteti Tarix fakulteti

Tarix yo’nalishi 1-kurs magistratura talabasi

Annotasiya: *Ushbu maqolada xalq ta’limi fidoyisi, mohir pedagog va notiq, "Xalq ta’limi a’lochisi" Qurbonboy Nabiyevning sermazmun hayot yo’li va pedagogik merosi haqida so’z yuritaman. Maqola muallifi – ustozning nabirasi sifatida, bobomizning nafaqat tarix va geografiya fanlari bilimdoni, balki jamiyatda yuksak e’tibor qozongan jamoat arbobi hamda oilamizning ma’naviy ustuni bo’lganliklarini arxiv ma’lumotlari va oilaviy xotiralarimiz orqali yoritib berishni maqsad qildim.*

Bobomizning hayot maktabi, u kishining o’z kasbiga bo’lgan sadoqati va biz nabiralariga qoldirgan boy ma’naviy o’gitalari bugungi kunda ham yo’limizni yorituvchi mayoq bo’lib xizmat qilmoqda. Maqola fidoyi bir ustozning xotirasini abadiylashtirish va uning ibratli faoliyatini kelajak avlodga yetkazish niyatida tayyorlandi.

Kalit so’zlar: *Pedagog, xalq ta’limi, "Xalq ta’limi a’lochisi", tarix va geografiya, ma’naviyat, ustoz-shogird an’anasi, notiqlik san’ati, metodika, ta’lim fidoyisi.*

Ulug’larni qadrlash, saxovatga muhtoj kishilarga ko’maklashish kabi chin insoniy fazilatlar har birimizning qalbimizga chuqur singgan. Bizning jonkuyar ustozlarimiz har doim xalq ardog’idadirilar. Shunday aziz va qadrlin insonlar haqida yozar ekanman, avvalo qalbimiz to’ridan joy olgan, nafaqat bizning, balki butun Qamashi qishlog’i ahlini yuragidan joy olgan serjilo inson — bobom Qurbonboy Nabiyev haqlariga duo qilaman. Oxiratlari obod bo’lsin. Biz uchun nihoyatda qadrlin bo’lgan bobom Qurbonboy Nabiyev 1951-yil 1-sentabr kuni Qamashi qishlog’ida dehqon oilasida tavallud topganlar. 1957-yilda qishloqdagi Alisher Navoiy nomli 15-o’rta maktabning 1-sinfiga qabul qilinib, 1967-yilda ushbu maktabni a’lo baholar bilan tamomlaganlar. Bilimga bo’lgan ishtiyoqlari sabab, o’sha yiliyoq Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining Tarix-geografiya fakultetiga o’qishga kirib, 1972-yilda institutni imtiyozli diplom bilan bitirganlar. Mehnat faoliyatlarini o’zlari tahsil olgan Hayit Xo’jametov 15-o’rta maktabida tarix va geografiya o’qituvchisi sifatida boshladilar.

Qurbonboy Nabiyev o’zining chuqur bilimi va namunali xulqi bilan jamoa orasida katta obro’-e’tibor qozondilar. Shuning uchun ham maktab jamoasi 1974-yilda u kishini Ilmiy bo’lim mudiri lavozimiga tavsiya etdi. Bobom ushbu mas’uliyatli lavozimda umrlarining oxiriga qadar samarali faoliyat yuritdilar.

U kishi nafaqat rahbar, balki iste’dodli va fidoiy o’qituvchi sifatida ham o’zlarini namoyon etdilar. Bobom ilmiy bo’lim mudiri bo’lgan davrlarda maktab o’quvchilari fan olimpiadalarida faol qatnashib, yuqori natijalarga erishishdi. Shuningdek, u kishining fanga doir ko’plab maqolalari tuman va viloyat miqyosida e’tirof etilgan.

20-Mart, 2026-yil

Bobomning ilmiy salohiyati faqat maktab bilan cheklanib qolmagan. U kishining maqolalari viloyat gazetalarida muntazam chop etilgan. Ayniqsa, 1983-yilda "Odobnoma" fanidan Respublika miqyosidagi seminarni aynan o‘zlari faoliyat yuritgan 15-maktabda yuqori saviyada o‘tkazganlari u kishining katta tajribasidan dalolat beradi. Ushbu tajriba keyinchalik Respublika miqyosida ommalashtirilgan.

Ustoz muallimning boshqalardan ajralib turadigan yana bir jihati — so‘zga ustaligi edi. Bobom uzoq yillar davomida tuman, viloyat va Respublika miqyosida "Mohir lektor" sifatida turli mavzularda targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borganlar. U kishi nafaqat pedagog, balki tili shirin suxandon ham edilar. Qishlog‘imizdagi to‘y-hashamlar bobom ishtirokisiz o‘tmasdi, u kishi bor joyda hamisha fayz va mazmunli suhbat bo‘lar edi.

Ta‘lim sohasidagi tinimsiz izlanishlari munosib taqdirlanib, bobom "Katta o‘qituvchi" va "Xalq ta‘limi a‘lochisi" kabi yuksak mukofotlarga loyiq ko‘rilganlar. Shuningdek, u kishi "Iqtisodiy bilim asoslari" fani bo‘yicha tuman uslubiy birlashmasi rahbari sifatida ham ko‘plab shogirdlariga o‘rnak bo‘ldilar. Afsuski, o‘z kasbining fidoiysi bo‘lgan bobomiz Qurbonboy Nabiyevni 1995-yil 28-martda, ayni kuchga to‘lgan vaqtlarida bevaqt o‘lim oramizdan olib ketdi. U kishining vafoti nafaqat oilamizni, balki butun qishloqdoshlarni chuqur qayg‘uga soldi. Hatto u kishining shogirdlaridan biri P. Ashurov ustoziga bag‘ishlab: "Qamashining bulbuli tindi", — deya marsiya yozgan edi.

Bobomning xizmatlari besamar ketmadi. Bugun u kishi tarbiyalagan farzandlar ham otalari yo‘lidan borib, el-yurt xizmatida kamol topmoqdalar. Qizlari Intizor va Muattar xuddi bobomdek 15-maktabda o‘qituvchi bo‘lib faoliyat yuritishmoqda. O‘g‘illari Yahyo Nabiyev esa hozirda O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasida, "O‘zbekiston 24" teleradiokanali DUKda bosh muharrir lavozimida faoliyat olib bormoqda.

Bobomning ma‘rifat yo‘lidagi chirog‘ini nafaqat farzandlari, balki oilamizning boshqa a‘zolari ham munosib ko‘tarib kelishmoqda. Kelinlari Lobar Rahmonova bugungi kunda Toshkent shahar Yangihayot tumanidagi 331-sonli umumta‘lim maktabida ona tili va adabiyoti fanidan yosh avlodga bilim berib, bobomiz boshlagan xayrli ishni poytaxtimizda davom ettirmoqdalar.

Bugun bobomning nabiralari ham u kishiga izdosh bo‘lish maqsadida oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olishmoqda. Yetuk mafkura egasi, o‘quvchilarining suyuqli ustozi, qishloq ahlining ardoqli farzandi Qurbonboy Nabiyev xotirasi hamisha bizning qalbimizda barhayotdir.

Prezidentimizning: "Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q", — degan so‘zlari bugungi hayotimizning har bir jabhasida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Zero, tarixiy adolatni tiklamay turib, buyuk kelajakni qurib bo‘lmaydi. Yaqin o‘tmishimizda istiqlolni orzu qilgan, yurtimiz tinch bo‘lsin deb yashagan, ammo bu yorug‘ kunlarga yetib maganlar yodi hamisha qalbimizda. Shu ma‘noda, poytaxtimizdagi "Xotira maydoni" biz uchun tabarruk maskandir. Motamsaro ona haykali poyida bitilgan "Sen doim qalbimizdasan, jigarim" so‘zlari o‘tganlar xotirasi hech qachon unutilmasligini eslatib turadi.

Men, bobomning nabirasi Qurbonboyeva Ra‘no Yahyo qizi, bugun bobomning tabarruk nomlarini cheksiz g‘urur bilan tilga olaman. Hozirda O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix

20-Mart, 2026-yil

fakultetining 1-bosqich magistratura talabasiman. Bobomdek bilimli va fidoyi tarixchi bo‘lish orzusi meni nafaqat ilm yo‘liga, balki zahmatli ustozlik kasbiga ham yetaklab keldi.

Hozirda men ham bobom kabi tarix fanidan yosh avlodga dars berib, o‘qituvchilik qilmoqdaman. Har gal sinfga kirganimda, o‘quvchilarning chaqnab turgan ko‘zlariga boqib, bobomning maktabdagi faoliyatlarini, u kishining o‘z kasbiga bo‘lgan cheksiz muhabbatini his qilaman. Bu kasbni davom ettirish, tarix ilmining sir-asrorlarini o‘rganib, xalqimizga yetkazish men uchun nafaqat maqsad, balki yuksak faxr va sharafdir. Bobomning poydevori mustahkam bo‘lgan ma‘rifat maktabi biz kabi avlodlar intilishi va amaliy faoliyati bilan hamisha yashaydi

“Shogirdlar Ardog‘ida – Ustoz Siymosi”

(Bobom Qurbonboy Nabiyev xotirasiga)

Qamashi bag‘rida bir quyosh edi,

Ilmning yo‘lida tog‘day bardosh edi.

Qurbonboy Nabiyev — nurli bir siymo,

Ham rahbar, ham ustoz, ham sirdosh edi.

Tarix sahifasin ochganda har gal,

Bobomning ovozi kelar muazzam.

Nizomiy bog‘idan olgancha ta‘lim,

Ziyo ulashmoqni bildilar har dam.

Suxandon tili-yu, ohu nigohi,

Har bir shogirdining bo‘ldi panohi.

“Xalq ta‘limi a‘lochisi” degan nom,

Halol mehnatingiz oliy guvohi.

Bugun men – nabira, yo‘lingizdaman,

Siz sevgan tarixning qo‘ynidagiman.

Milliy universitet — ilm maskani,

Siz orzu qilgan shu nabirangizman.

Lobar ayam dars berar poytaxtda bugun,

Ma‘rifat bog‘ida yechmoq-chun tugun.

Men ham maktabdaman – tarixchi ustoz,

Siz yoqqan chiroqni yoqmoqlik uchun.

Yahyo dadam so‘zi — efirda jarang,

Avlodlar kamolin ko‘ring bir qarang.

Siz ekan nihollar bo‘ldi chin chinor,

Xotirangiz barhayot, qalbda har rang.

20-Mart, 2026-yil

Jannat bog‘larida bo‘ling siz omon,

Duolar qilamiz bizlar har zamon.

Bobojon, ismingiz mangu yashaydi,

Biz — sizni sog‘ingan munosib karvon.

Ushbu maqolamni, butun hayotini ilm va ma‘rifatga baxshida etgan, minglab shogirdlariga yo‘lchi yulduz bo‘lgan aziz inson — bobojonim Qurbonboy Nabiyevning o‘chmas xotirasiga cheksiz ehtirom ila bag‘ishlayman.

Bobojon, siz bizga qoldirgan eng katta meros — bu faqatgina ismingiz emas, balki qalbimizga muhrlangan ilmga bo‘lgan muhabbat va yuksak odamiylik darsidir. Bugun siz jismonan oramizda bo‘lmasangiz-da, har bir dars o‘tayotgan sinfxonamizda, har bir varaqlayotgan kitobimizda va ezgu duolarimizda hayotsiz. Siz yoqqan ma‘rifat mash’alasi biz — nabiralaringiz qo‘lida hamisha baland yonadi.

Siz doim qalbimizdasiz, bobojonim! Oxiratingiz obod, ruhingiz har doim shod bo‘lsin.